



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING QARORI

2024 - yil 26 - yanvar

VI-95-3-7-0-K/24

Samarqand viloyati hokimligi

Samarqand viloyatida 2024-yilda yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulkning mutloq qiymatiga qo'llaniladigan kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 21-dekabrda (03/41-40/1472-son) xati, viloyat Soliq boshqarmasining 2024-yil 3-yanvardagi (19/10-00134-son) murojaati, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 3-yanvardagi (02/02-38/2-son) xulosasi, viloyat hokimi birinchi o'rinbosari kotibiyati mudiri R.Mahqulovning 2024-yil 4-yanvardagi (02/01-30-son) bildirgisiga asoslanib, xalq deputatlari viloyati Kengashining oltinchi chaqiriq, to'qson beshinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati shahar va tumanlarining iqtisodiy rivojlanishiga qarab 2024-yilda yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulkning mutloq qiymatiga qo'llaniladigan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (F.Abilov), viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (B.Mirzayev), viloyat Soliq boshqarmasi (S.Eshmatov) mazkur qarorga asosan 2024-yilda yuridik shaxslarning mulk qiymatiga qo'llanilayotgan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni soliq to'lovchilarga yetkazilishini ta'minlasin.

3. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (M.Mirzayev), viloyat hokimligi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi" (N.Norbekov) ushbu qarorni "Zarafshon" va "Самарқандский вестник" gazetalarida rasman e'lon qilinishi va viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (F.Nasrullayev) va viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (F.Abilov) zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi



S.Usmonov

Xalq deputatlari Samarqand viloyat
Kengashining
2024-yil 26-yanvardagi
VI-95-3-7-0-K/24-son qaroriga
1-ilova

**Samarqand viloyati shahar va tumanlarining iqtisodiy rivojlanishiga qarab 2024-yilda
yuridik shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblashda ko'chmas mulkning mutloq qiymatiga
qo'llaniladigan kamaytiruvchi koeffitsiyentlar**

T/R	Hududlar nomi	Kamaytiruvchi koeffitsiyent (yirik soliq to'lovchilardan tashqari)	Minimal miqdor 2024-yil uchun (ming so'm)
1.	Kattaqo'rg'on shahar	1,00	1 200,0
2.	Oqdaryo tumani	0,66	792,0
3.	Bulung'ur tumani	0,66	792,0
4.	Jomboy tumani	0,73	876,0
5.	Ishtixon tumani	0,67	804,0
6.	Kattaqo'rg'on tumani	0,61	732,0
7.	Qo'shrabot tumani	0,50	600,0
8.	Narpay tumani	0,62	744,0
9.	Payariq tumani	0,61	732,0
10.	Pastdarg'om tumani	0,73	876,0
11.	Paxtachi tumani	0,51	612,0
12.	Samarqand tumani	0,78	936,0
13.	Nurobod tumani	0,51	612,0
14.	Toyloq tumani	0,73	876,0
15.	Urgut tumani	0,62	744,0